

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov

Xalq ardog'idagi til - mangu barhayot.....	6
--	---

PEDAGOGIKA

T.Egamberdiyeva, O.Ashurova

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning tahliliy omillari.	9
---	---

U.Maqsudov, R.Rahmonova

Ommaviy axborot vositalari mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish obyekti sifatida.....	12
---	----

M.Suyunova

Pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish tamoyillari.....	17
--	----

N.Saidova, B.Abdullayeva

Bo'lajak boshlangich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni modeli	20
---	----

X.Tojiboyeva

O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	24
--	----

A.Kalliyev

Ijodkor talabalar bilan ishlashda pedagoglik mahorati va usullar	27
--	----

I.Usmonaliyev

Tarixiy tafakkur orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari usullarini pedagogik taxlili.....	32
--	----

FALSAFA, SIYOSAT

A.Yuldashov

O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasini ta'minlashda ta'limning ahamiyati.....	37
--	----

Q.Aliqulov

Innovatsion va transformatsion o'zgarishlarning yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	41
--	----

TARIH

X.Boymirzayev, Z.Jobborov

Sovet hukumatida 20-30 yillarda amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari tarixidan.....	46
--	----

X.Mamajonov

Amir Temur davlati va oltin o'rda o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi va diplomatik aloqalarning boshlanishi.....	49
--	----

A.Aloxunov, A.Mamasiddiqov

Farg'ona vodiysidagi dalvarzin yodgorligining mudofaa tizimi xususida	53
---	----

A.Abduxalimov

Vodiy viloyatlari qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishi	57
--	----

I.Yusupov

O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi	62
---	----

I.Turdiyev

Jizzax vohasi aholisining oila va nikoh bilan bog'liq an'analar va Marosimlari	67
--	----

Liang Yun, Xi Tongyuan, Ra'nogul Yusuf, N.Kambarov

O'zbekistonning Samarqand shaxridagi Sazagan yodgorligining M11 qabrida olib borilgan qazuv tadqiqotining hisoboti	70
--	----

ADABIYOTSHUNOSLIK

L.Axmadaliyev

Po'latjon Qayyumiy zamondoshlari xotirasida	85
---	----

JIZZAX VOHASI AHOLISINING OILA VA NIKOH BILAN BOG'LIQ AN'ANALARI VA MAROSIMLARI

СЕМЕЙНЫЕ И БРАЧНЫЕ ТРАДИЦИИ ЖИТЕЛЕЙ ДЖИЗАКСКОГО ОАЗИСА

FAMILY AND MARITAL TRADITIONS OF THE POPULATION OF JIZZAKH OASIS

Turdiyev Ilyos¹¹Turdiyev Ilyos

– SamDU doktoranti

Annotatsiya

Jizzax vohasidagi aholi maskanlarida o'tkazib kelinayotgan to'ylar, xususan, nikoh to'ylari, kelin-kuyov bilan bog'liq ko'plab rasm-rusumlarga duch kelish mumkin. Qiz uzatish va kelin tushirishga aloqador urf-odatlar va marosimlarning aksariyat boshqa viloyatlaridagi bilan deyarli bir xil. Ko'p joylarda hozirgacha amal qilinadigan an'anaviy "fotiha oshi", "sarpoyuborish", "maslahat to'yi", "quda tanishuvi", "hayitlik", "qizlar bazmi", "padar oshi" singari rasm-rusmlar yoki to'ydan keyin o'tkaziladigan "chimildiq yig'di", "kelin salomi", "kelin ko'rdi", kabi urf-odatlar o'tkaziladi.

Аннотация

В населенных пунктах Джизакского оазиса можно встретить множество традиций и обычаев, связанных со свадьбой, в частности свадьбой, и женихом и невестой. Обычаи и обряды, связанные с женитьбой и браком, почти такие же, как и в большинстве других регионов. Во многих местах после свадьбы проводятся традиционные «фатиha oshi», «сарпo yuborish», «встреча сватов», «маслахат тўйи», «хайтлик», «девичья вечеринка», «падар oshi» или «чимилдик йиги», до сих пор практикуется «Поклон невесты», «Келин корди», где соблюдаются традиции.

Abstract

In the settlements of the Jizzakh oasis, you can find many traditions and customs associated with the wedding, in particular the wedding, and the bride and groom. The customs and rituals associated with marriage and wedding ceremony are almost the same as in most other regions. In many places, the traditional "fatiha oshi", "sarpoyuborish", "maslahat to'yi", "qudalar to'yi", "haitlik", "girls' party", "padar oshi" or "chimildik yigi" held after the wedding are still practiced, "Bows of bride", "Kelin kordi" traditions are held.

Kalit so'zlar: Jizzax, nikoh, kelin kuyov, qalin, burundiriq, sarpo yuborish, maslahat to'yi, quda tanishuvi.

Ключевые слова: Джизак, никох, жених, калым (выкуп за невесту), бурундирик, послание одеяний, свадебный совет, сватовство.

Key words: Jizzakh, nikokh, groom, kalim (brideprice), burundirik, clothes sending, wedding advice, matchmaking.

Kirish

Dunyo xalqlari orasida globallashuv jarayonlari tobora kuchayib borayotgan va turli madaniyatlarining o'zaro qorishuvi jadallashayotgan bugungi kunda milliy qadriyatlarni saqlab qolish, ajdodlardan meros moddiy va ma'naviy an'analarni kelgusi yosh avlodga yetkazib berish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu masala o'zbek xalqi uchun ham xos bo'lib, bir tomondan dunyo hamjamiyati bilan integratsiyalashish, ikkinchi tomondan esa o'z milliy madaniyatini avaylab-asrash uchun respublika hukumati va jamoatchilik tomonidan diqqatga sazovordir.

Adabiyotlar tahlili

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilgan bir qator izlanishlarda ham bu mavzu birmuncha o'z ifodasini topgan bo'lib, B.To'ychiboyev, A.Ashirov, G.Zunnunova, M.Pardayev, B.To'ychiboyev, G'.Boboyorov va boshqalarning ilmiy ishlari ham metodologik, ham ilmiy va amaliy jihatdan tanlab olinayotgan tadqiqot uchun qo'llanma vazifasini bajaradi. Garchi ushbu tadqiqotlarning ko'pchiligi o'rganilish ko'zda tutilayotgan mavzuga to'g'ridan-to'g'ri tegishli bo'lmasada, regionlarni o'zaro taqqoslashda asqotadi deb o'ylayman.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolaga ma'lumotlar to'plashda asosan dala kuzatish va taqqoslash metodlaridan keng foydalanildi. Bunda Jizzax vohasida hozirda yashayotgan bir qancha urug'larni urf-odatlari o'rganilgan holda ilmiy asarlardagi ma'lumotlar bilan qiyosiy taqqoslangan.

Tahlillar va natijalar

“Nikoh” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, er-hotinlikning shariat yo‘li bilan qonuniy rasmiylashtirish, tashkilot ittifoq degan manoni bildiradi[1].

Jizzax vohasi aholisi orasida saqlangan nikohga aloqador rasm-rusmlar orasida “kelinning oldiga chiqish (burundiq)”, “sep yig‘ish”, “turkunchlash” va hokazo odatlari bo‘yicha olib borilgan izlanishlarning ko‘lami unchalik keng emasligi ko‘zga tashlandi. Ayniqsa, qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi o‘zbeklarda oila va nikoh bilan bog‘liq saqlanib qolgan ayrim urf-odatlar mamlakatimizda va qo‘shni o‘lkalarda yashayotgan ko‘pchilik o‘zbek aholida mavjud an‘analardan birmuncha farq qiladi.

Hozirgi vaqtda o‘zbeklarda keng tarqalgan nikoh to‘ylari asosan an‘anaviy udumlarni saqlagan holda yangicha marosimga muvofiq kelin bilan kuyov ixtiyori, ota-onalar, yaqin qarindosh va do‘st-u birodarlar maslahati bilan o‘tkaziladi. Ko‘p joylarda hozirgacha amal qilinadigan an‘anaviy «fotiha oshi», «sargo yuborish», «maslahat to‘yi», «quda tanishuvi», «hayitlik», «qizlar bazmi», «padar oshi» singari rasm-rusmlar yoki to‘ydan keyin o‘tkaziladigan «chimildiq yig‘di», «kelin salomi», «kelin ko‘rdi», «challar» yoki «kuyov chaqiriq» kabi urf-odatlar o‘tkaziladi.

Albatta, bunday nikoh to‘ylari juda ham katta xarajat talab qiladi. Odat tusiga kirgan mazkur marosimlar ko‘p bolali oilalar uchun ancha og‘ir yuk bo‘lib, ko‘pincha ularning qarzgaga botishiga olib keladi. Hozirgacha saqlanib kelgan qalin esa uning ustiga yana ham ortiq xarajat bo‘lib yuklanadi. Uni hozir «kuyov sovg‘asi», «sut haqi» deb zamonaviylashtirish ko‘rinishda namoyish qilmoqdalar. Aslida qalin islomgacha turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan odatlardan. Masalan, VI asrga oid O‘rxun-Yenisey yozuvlarida, Mahmud Koshg‘ariy asarlarida u tilga olingan. Ba‘zi tadqiqotchilar qalinni ayollarning jamiyatda qadr-qimmatini ish kuchi sifatida baholash bilan bog‘liq odat desa, ayrimlari ularning ijtimoiy tengsizligi boshlanishi bilan yuzaga kelgan, degan fikrni bildiradilar. Buni asoslash uchun qadimiy odat bo‘yicha qalin haqi uchun ishlab berish yoki pul shaklida to‘lashga majbur bo‘lish misol qilib ko‘rsatiladi. Ayrim paytlarda qalin o‘rniga o‘zaro qiz almashtirish, ya‘ni qarshi qudalik odatiga amal qilib qalin to‘lanilmagan. Islom dini paydo bo‘lgach qalin to‘lash qonunlashtirilgan. Bu odat hozirgacha saqlanib, Janubiy O‘zbekiston, Xorazm va Qoraqalpog‘istonda katta pul hisoblanadi [2].

Markaziy Osiyo va unga qo‘shni hududlarda yashovchi xalqlarning, xususan, turkiy xalqlarning oila va nikoh bilan bog‘liq urf-odat va an‘analari ko‘p jihatlardan o‘zaro o‘xshashlik ko‘zga tashlanib, buni Jizzax vohasining o‘zbek, qozoq, qirg‘iz va tojik oilalarida saqlanib qolgan turli marosim va an‘analar ham tasdiqlaydi.

Jizzax vohasidagi aholi maskanlarida o‘tkazib kelinayotgan to‘ylar, xususan, nikoh to‘ylari bilan tanishib chiqish jarayonida kelin-kuyov bilan bog‘liq ko‘plab rasm-rusumlarga duch kelish mumkin. Qiz uzatish va kelin tushirishga aloqador urf-odatlar va marosimlarning aksariyat ko‘pchiligi vohada mamlakatimizning boshqa viloyatlaridagi bilan deyarli bir xil. Ayniqsa, sovg‘a qo‘yish, unashtirish, nikoh to‘yi va hokazolarda umumiylik ko‘zga tashlanishi va quda-andachilik bilan bog‘liq an‘analarning nisbatan yaxshi o‘rganilganligi bois, mamlakatimizda nisbatan kam uchraydigan urf-odat va an‘analarga to‘xtalishni lozim topdik.

Jizzaxga ko‘chib kelgan qashqadaryolik (asosan chiroqchilik) va samarqandlik (asosan nurobodlik) ayrim o‘zbek oilalarida saqlanib qolgan[3] ushbu odatga ko‘ra, har bir kelin ota uyida “nikoh qiyilib” kuyovning uyiga olib kelingach, kelinni kutib olgan kuyovning yaqin ayol qarindoshlari kelin uchun “yangi ota-ona” kim bo‘lishini to‘yda qatnashayotganlarga, asosan kelin-kuyov uyining bo‘sag‘asida turgan quda-andalar va atrofda yig‘ilgan ayollarga e‘lon qiladi. An‘anaga ko‘ra, kelin ulovdan tushirilib, kelin-kuyov uchun bezatilgan uy bo‘sag‘asida uning “yangi onasi” hadya bilan kutib oladi va kayvoni ayollardan biri kelining “yangi onasi” kim bo‘lganligini e‘lon qiladi. Qizig‘i shundaki, bu odat ko‘pchilik o‘zbek kelin-kuyov to‘ylarida amalga oshiriladigan kelinga qarindoshlaridan biri, ko‘pincha kelinning tog‘asi “vakil”, “vakil ota” bo‘lish marosimiga birmuncha o‘xshab ketsa-da, mazmun va mohiyati jihatidan undan ancha farq qiladi.

Ushbu odat turkiy xalqlarning ayrimlarida, xususan, qoraqalpqlarda “murindiq”, “murindiq ata”, “murindiq ana” shakllarida uchrab, ma‘nosi “yangi qurilayotgan oilaga ma‘naviy va ramziy ma‘noda ota-ona bo‘lish, vasiylik qilish”dir[4]. Boshqirdlarda morondoq (murundiq) ata / ana / qiz so‘zlari “tutingan ota / ona / qiz” degan ma‘nolarni bildirib[5], boshqird oilalarida ushbu odat ancha keng yoyilgan.

TARIX

Ushbu odatga ko'ra, kelinning yangi oilaga kelib qo'shilishi bir necha o'ziga xos irimlar bilan o'tkazilib, kelin-kuyovga qizning ayniqsa yangasi va boshqa qarindosh ayollarning alohida e'tibor berishi, katta oilalardan biri uning «murundiq» yoki «vakil onasi» qilib, oiladagi erkakning ikkinchi ota sifatida tayinlanishi yoshlarni oilaviy hayot sirlariga o'rgatishga qaratilgan qadimiy ajoyib odatlardan hisoblanadi[6].

Qadimgi turkchada «burundiq» ko'rinishida qo'llanilgan ushbu so'z «jilov, no'xta» degan ma'noni bildirgan[7]. O'zbek adabiy tilida «burundiq» so'zi 1.«asov, tishlong'ich tuyaning yoki qopag'on itning tumshug'iga kiydirib qo'yiladigan maxsus to'r»; 2.«kemiruvchilar oilasiga mansub bir xil hayvon» ma'nolarida qo'llaniladi. Bu so'zning ikkinchi ma'nosi bir qator turkiy xalqlarda, shu jumladan, tualiklarda burundiq «ho'kiz yoki tuyaning burniga tayoq o'tkazib bog'langan arqon», qozoqlarda murindiq «burniga taqilgan halqa» ma'nolarida ishlatilishida o'z ifodasini topadi.

Aslida negizida «burundiq» yoki «burunduruq» (Xorazm viloyati Yangibozor shevasidagi «burundiriq») so'zi qoraqalpoqchada «murindiq» ma'nosida saqlanib qolib, kelin-kuyovning «oldiga chiqqan», ya'ni yangi qurilgan oilaga ona-onalik vazifasini o'z gardaniga olgan oilaga nisbatan qo'llanilishi bejiz emas. Demak, qadimgi turkcha «jilov, no'xta» ma'nosidagi «burundiq» so'zi ma'no jihatdan birmuncha o'zgarishga uchragan bo'lsa-da, semantik jihatdan «yo'l ko'rsatuvchi, yo'l boshlovchi, yo'lga soluvchi» ma'nosida qoraqalpoqchada «murindiq», o'zbek shevalarida «burundiq», «burundiriq» shakllarida, «tartibga soluvchi» ma'nosida «burundiq» shaklida o'zbek adabiy tilida saqlanib qolgan.[8]

«Burundiq» yoki «oldiga chiqqan ota-ona» tayinlashning ham bir qator shartlari mavjud bo'lib, bu vazifa yuklatiladigan oilaning birmuncha yoshroq juftliklardan tanlanishi, ularning kuyovning yaqin-qarindoshlari yoki jamoada nufuzliroq oila vakillari bo'lishlari, o'z hulq-atvori, obro'si, ko'pchilik havas qiladigan odob-ahloqqa ega bo'lishlari va hokazolarga e'tibor qaratilgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, Jizzax vohasi aholisida mavjud bo'lgan nikoh va oila qurishga aloqador urf-odat va marosimlar bilan qisqacha tanishib chiqish shundan darak beradiki, ajdodlarga xos an'analar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmasdan oila va qarindosh-urug'chilik rishtalarimizning yanada mustahkam bo'lishini ta'minlab kelmoqda. Vohada to'y marosimlarining tarixi va ananalari o'ziga hos alohida takidlab o'tsak buladi. Jizzax vohasida o'tgan to'y marosimining tarixiy shakllanish jarayonlari yuqorida keltirib o'tkanimiz kabi qiziqarli tarixga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.To'rayev Milliy madaniyatimizning asriy an'anasi. «Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi». Ilmiy-amaliy konferentsiya to'plami. Toshkent, 2021, 501-bet.
2. I. Jabborov O'zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 1994. B. 219-220.
3. Дала ёзувлари. 2022 yil 14-sentyabr
4. М.М.Давлетияров Руўхыйлығымызды бекемлейде социаллық институтлардың орны Материалы международной конференции «Устойчивое развитие Южного Приаралья». Нукус: Илим, 2011. 105-106.
5. Башкортса русса һезлек Башкирско русский словарь. Ответственный редактор З. Г.Ураксин. Москва: Дигора, 1996. С. 36, 438; Бекетаев М. Қазақша орысша сөздік. Б. 336.
6. Mahmud Koshg'ariy, Turkiy so'zlar devoni (Devonu-lug'oti-turk) Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. 1- tom. – Toshkent: Fan, 1960. – B. 460.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. B harfi. A. Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006-2008. – B. 384. Тыва – орус.
8. Тыва–орус словарь. Под ред. Тенишев. Москва: Советская энциклопедия, 1968. С. 123.
- 9.

(Taqrizchi: B.Usmanov–tarix fanlari doktori)